

KELAIS CHIQILGAN

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
2023 yil 27.07.2023 da qo'shiq qabiliyatini bilan


ZORIY CHIQILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60112400 – Professional ta'lif (transport vositalari muhandisligi
(avtotransport)) bakalavriat ta'lif yo'nalishining malaka talablari**

Mashin Malaka talabari hozir ta'lif davlat ta'lif standartiga mos qoldi", "Oliy ta'lif avto ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishining muhandisligi, klassifikatsiya", O'zbekiston Respublikasi Milliy va mehnati malaka doironasi (mobil, avtobus, trolleybus va galtchi chunuslari) tezliklariga imzalangan bo'lib chiqilgan va tayinli kin yordamida hisoblanadi.

"Oliy ta'lif standarti" hisobida "Malaka talablarini o'satish" dasturini huquq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga qabiliyati.



Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «4» 08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

1.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> bet bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari	5
2.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya	9
2.3.2.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar	9
2.3.3.	<i>60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi	10
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari.

60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) – fan, texnika va ta’lim sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u o‘quv fanlari, vositalari, uslublari va pedagogik faoliyatning usullarini hamda avtotransport vositalaridagi ishchi jarayonlar nazariyasini o‘zlashtirish va tadqiqot qilish, avtotransport vositalarini loyihalash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish, sinash va ekspluatatsiya qilish hamda ulardan foydalanishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- ishlab chiqarish korxonalarida avtotransport vositalarini va ularning ichki yonuv dvigatellarini ishlab chiqarish, foydalanish va texnologik hamda ularni ishlatalishning samarali jarayonlari;

- sohaga tegishli ilmiy tadqiqot va loyihalash konstruktorlik ishlari;
- avtotransport vositalari va ularning konstruksiyalari;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari;
- avtotransport vositalariga oid professional ta'lim muassasalari (kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar) va o'quv markazlaridagi o'quv-tarbiya jarayoni.

1.2.3. 60112400 – Professional ta'lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:

- o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- loyihiy-konstruktorlik faoliyat;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyat;
- yig'ish-sozlash ishlari faoliyati;
- foydalanish va servis xizmati ko'rsatish faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60112400 – Professional ta'lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.

60112400 – Professional ta'lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
 - o'quv fanlarini o'qitish uslubiyatini egallash;
 - zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
 - o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
 - o'qitilayotgan fan bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
 - mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini munqazam takomillashtirish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatda:

- avtotransport vositalari qismlari, detallari va yig'ma-birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish;
 - bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlari mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
 - loyihiy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
 - avtotransport vositalari tizimlari va mexanizmlarining ishechi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish;
 - amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda:

- muhandislik ishi jabhasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;
 - tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirot etish;
 - obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlash;
 - ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;



- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;
- kasbiy etika qoidalariga rioya qilish.

Yig'ish-sozlash ishlari faoliyatida:

- avtovositalari tizimlarini yig'ish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish.

Foydalanish-servis faoliyatida:

- avtovositalari va boshqalardan foydalanish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- avtovositalari va ularning dvigatellariga texnik xizmat ko'rsatish namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- avtovositalari va ularning dvigatellarini sinash va diagnostika qilish hamda ularni ishlatish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- konstruktorlik byurosi, yig'uv va sinov sexida usta, katta usta, ishlab chiqarish mexanigi va boshqalar;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qurilish ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish ko'nikmalari.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat obyektlari holatini tahlil qilishda ishtirop etish;
- muhandislik ishi sohasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirop etish;
- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, ratsional texnologik jarayonlarni tanlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda qatnashish;
- muhandislik ishi ta'lif sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rghanish;
- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikatsiyalarni tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirop etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;
- patent tadqiqotlarni o'tkazish qoidalaridan foydalanish, ishlab chiqilayotgan texnik obyektlarni patentga yaroqlilagini aniqlashda ulardan foydalana olish, aqliy mulk obyektlarini va tadqiqot natijalarini himoya qila olish.

2. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- avtotransport vositalari qismlari, detallari va yig‘ma birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;
- loyihamiyy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- avtotransport vositalarining ishchi parametrlarini aniqlash bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlarini o‘zlashtirishni bilish;
- mexanizmlarni optimal parametrlarini aniqlash; konkret mexanizmlarni hisoblashda EHMda hisoblash dasturlarini ishlab chiqish; mashina va mexanizmlarning kinematik va dinamik parametrlarini aniqlashda o‘lchov asbob-uskunalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- yuritmalarni tuzish, uzatmalarni kinematik hisoblash, uzatma, val va o‘qlar, podshipniklar va birikmalarni ishchanlik qobiliyati bo‘yicha loyihalovchi va tekshiruvchi hisoblarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- loyihalash va uning asosiy bosqichlarining maqsadlari va vazifalarini aniqlash; texnikaviy obyektlarning matematik modellarini tuzish; ALTni har xil ta’minlashni loyihalash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- mexanik ishlov berish texnologik jarayonlarini loyihalash, o‘lchamlar zanjirlarini hisoblash, texnologik jarayonlarning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- yonilg‘i, moy, sovituvchi va ishchi suyuqliklarni tanlash, ularning xossalalarini bilish va ularni aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- avtotransport vositalaridan unumli foydalanish, ularga va ularning elektron jihozlariga texnikaviy xizmat ko‘rsatish va sozlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- dvigatelni issiqlik va dinamik hisobini bajarish va ularni tahlil qilish; IYoDlari xarakteristikalarini olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- o‘quv jarayonini me’yoriy hujjatlar asosida tashkil qilish, mashg‘ulotlarni rejalashtirish va zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiya va vositalardan foydalanib amalga

oshirish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'qitish jarayoni va inson psixikasi rivojlanishining o'zaro ta'sirining asosiy prinsiplari va qonuniyatlarini, kasbiy o'qitish va rivojlanish psixologiyasini, mehnat psixologiyasining ishlab chiqarishga ta'sirini bilish;
- kasbiy o'qitish jarayoni, mazmuni, metodlari, shakllarini bilishi, o'quv jarayonida o'qitish vositalarini tanlash va ulardan foydalanish, kasbiy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tarbiyalashning mohiyati, metodologik asoslari va xususiyatlarini bilish, talabalar jamoasini shakllantirish, tarbiyaviy ishni tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kasbiy ta'limda nazariy va kasbiy (ishlab chiqarish) o'qitish mazmunini tahlil qilish va uni tanlab olish, o'qitish metodlarini bilish va o'qitishni tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- nazariy va amaliy (ishlab chiqarish) o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasি kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar *majburiy va tanlov* fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

- Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.
- Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

- Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.
- Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

O'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlari ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan



holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga ikitidan kam bo'limgan o'mini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

3. Pedagogik va malakaviy amaliyat.

Bakalavrler tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

2,3-bosqichlarda pedagogik va malakaviy amaliyat – professional ta'lim muassasalarida va ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda pedagogik amaliyat – avtotransport sohasi bo'yicha professional ta'lim muassasalarida kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot toplash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

2.3.1. Kvalifikatsiya: muhandis-pedagog.

2.3.2. 60112400 – Professional ta'lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5100	170
Tanlov fanlari	1530	51
Malakaviy amaliyat	420	14
Davlat attestatsiyasi	150	5

**2.3.3. 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport))
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi**

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5100	170	
1.01	O‘RT11104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN11204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM11204	Kimyo	120	4	2
1.04	XT11408	Xorijiy til 1,2	240	8	2,4
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM11315	Oliy matematika 1,2,3	450	15	1,2,3
1.07	O‘EYT11104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	TTAT11104	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.09	MKG11104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.10	MSO‘A12404	Metrologiya, standartlashtirish va o‘zaro almashuvchanlik	120	4	4
1.11	SIM14804	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	6
1.12	FAL13604	Falsafa	120	4	6
1.13	EKO13504	Ekologiya	120	4	5
1.14	HFX14704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	4
1.15	MEX11522	Mexanika (NM, MQ, MMN, MD)	660	22	2,3,4,5
1.16	ELTEX12304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.17	GIDR12304	Gidravlika va gidropnevmo-yuritmalar	120	4	3
1.18	MKMT12408	Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi	240	8	3,4
1.19	YK11105	Yo‘nalishga kirish	150	5	1
1.20	LJAA12404	Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari	120	4	4
1.21	AVK12510	Avtotransport vositalari konstruksiyalari	300	10	4,5
1.22	AVEJET13506	Avtotransport vositalarining elektr jihozlari va elektron tizimlari	180	6	5
1.23	TEQ14810	Transport energetik qurilmalari	300	10	7,8
1.24	AVTES14810	Avtotransport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi va servisi	300	10	7,8
1.25	KTM14810	Kasbiy ta’lim metodikasi	300	10	7,8
2.00		Tanlov fanlari	1530	51	
2.00		Tanlov fanlari (8 ta fan)	1530	51	3,5,6,7,8
		Jami	6630	221	
		Malakaviy amaliyotlar	420	14	4, 6, 8
		Davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami	720	19	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, professional ta'lim, avtotransport vositasi, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti



M.O'.

prof. S.M. Turabdjanov

2023 yil « 03 » 02

KELISHILDI:

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limi rivojlantirish
tadqiqotlari markazi



M.O'

Sh. Yakubov

2023 yil « 06 » 02

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti



M.O'

A.K. Qirg'izboyev

2023 yil « 06 » 07

Toshkent tumani xizmat ko'rsatish
va servis texnikumi



M.O'

A.Z. Mirzayev

2023 yil « 06 » 02

Shayxontohur transport kasb-hunar
maktabi



Direktor

G.Q. Yusupova

2023 yil « 06 » 07

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy
ta’lim muassasalarini va asosiy kadrlar iste’molchilar o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“7” 07

2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.K.Qirg‘izboyev, Shayxontohur transport kasb-hunar maktabi direktori G.Q.Yusupova, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 27 fevraldaggi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.


Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilar tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti rektori, professor

A.K.Qirg‘izboyev



Shayxontohur transport
kasb-hunar maktabi direktori

G.Q.Yusupova

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor

S.M.Turabdjanov



**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari
muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli
bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar
mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv
rejasiga**

TA Q R I Z

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishining malaka talablar va o‘quv rejasi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sen Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Qarorlari hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi

(avtotransport)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasidagi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilalar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60112400 – Professional ta'lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasidagi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori, professor

A.K.Qirg'izboyev



**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab
chiqilgan 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi
(avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar
tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

TA Q R I Z

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60112400 – Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqr bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejaside fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini



amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lган korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60112400 – Professional ta'lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Shayxontohur transport
kasb-hunar maktabi direktori



G.Q.Yusupova